XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 28 - fevral VI-69-14-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati “OLMALIQ ISSIQLIK MANBAI” mas’uliyati cheklangan jamiyati issiq suv va isitish xizmatlari tariflari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonunining 13-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-noyabrdagi “Yoqilg‘i-energetika resurslarining narx va tariflarini bosqichma-bosqich o‘zgartirish to‘g‘risida”gi 897-sonli qaroriga asosan, Toshkent viloyati “OLMALIQ ISSIQLIK MANBAI” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan issiq suv va isitish xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 813-sonli Qonunning (*13-moddasi*) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “OLMALIQ ISSIQLIK MANBAI” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan issiq suv va isitish xizmatlari tariflari ilovaga muvofiq

ma’qullansin.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi xulosasi (20.06.2022-yildagi T-11-01/03-2496-son) inobatga olinganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. “Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Zarifa Eraliyeva), “Angren haqiqati” va “Angrenskaya pravda” gazetalari bosh muharriri (Almira Mustafina) ga issiq suv va isitish xizmatlarining yangi tariflari belgilangan muddatlarda joriy yilning 5 martidan keyin qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov va viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Muzaffar Fayziyev hamda viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Barhayot Meliyev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi **Z.Mirzayev**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining
2023 yil 28 fevraldagi
VI-69-14-10-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

“OLMALIQ ISSIQLIK MANBAI” issiqlik energiyasi uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlari (ta`riflar)

t/r	Xizmat turi	Amaldagi narx (ta‘rif) (so‘m)	Amaldagi narx (ta‘rif) (so‘m) (QQS bilan)	Taklif etilayotgan narx (ta‘rif) (so‘m)	Taklif etilayotgan narx (ta‘rif) (so‘m) (QQS bilan)
Issiqlik energiya narxi					
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo‘lganda	4 188	4 188	4 530	4 530
1.2.	Issiq suv 1kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo‘ lmaganda	15 575	15 575	17 133	17 133
1.3.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	1288	1288	115,32	115,32
2	**Budjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	74 880	86 112,0	237 000	272 550,0
3	**Ulgurji iste‘molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	74 880	86 112,0	249 500	286 925,0